

20-Iyun, 2025-yil

JINOYAT PROTSESSIDA VAKILLIK INSTITUTINING AHAMIYATI

Shamsiyev Abdulaziz Elmurod o'gli
Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 327-guruh kursanti

Anatatsiya: Ushbu maqolada jinoyat protsessida vakillik institutining ta'rifi, ahamiyati va huquqiy asoslari o'rganilgan. Jinoyat-protsessual kodeks, Konstitutsiya hamda xalqaro huquq normalari vakillik institutining qonuniy kafolatlarini belgilaydi. Maqola vakillik institutining jinoyat protsessidagi himoya va adolatni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini yoritadi.

Аннотация: В данной статье исследуются определение, значение и правовые основы института представительства в уголовном процессе. Уголовно-процессуальный кодекс, Конституция, а также нормы международного права закрепляют законные гарантии института представительства. Статья освещает роль института представительства в обеспечении защиты и справедливости в уголовном процессе, а также практические проблемы и пути их решения.

Abstract: This article examines the definition, significance, and legal foundations of the institute of representation in the criminal process. The Criminal Procedure Code, the Constitution, and international legal norms establish the legal guarantees of the institute of representation. The article highlights the role of the institute of representation in ensuring protection and justice in the criminal process, as well as practical issues and ways to address them.

Kalit so'zlar: yuridik, vakillik, protsessual, huquq, himoya, qonuniy, jinoyat-protsessual.

Jinoyat protsessi – davlat organlari tomonidan jinoyat sodir etilganda qonuniy tartibda olib boriladigan jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi jinoyatni fosh etish va aybdorni qonun oldida javobgarlikka tortishdir. Ushbu jarayon davomida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Vakillik instituti esa jinoyat protsessida shaxsning huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada jinoyat protsessida vakillik institutining ahamiyati, uning huquqiy asoslari hamda amaliy ahamiyati misollar bilan yoritiladi.

Jinoyat protsessining mohiyati va vakillik institutining ta'rifi

Jinoyat protsessi – jinoyatni aniqlash, tergov qilish, sudlash va jazoni ijro etish jarayonlaridan iborat huquqiy faoliyatdir. Bu jarayonda har bir shaxs – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va boshqalar o'z huquq va erkinliklariga ega.

20-Iyun, 2025-yil

Vakillik – bu shaxsning o‘zining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun advokat yoki boshqa vakilni jalb qilish huquqidir. Jinoyat-protsessual kodeksning 49-moddasida vakillik huquqi mustahkamlangan. **Vakillik** – bir shaxsning boshqa shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishi. V. asosan bir shaxs (vakil)ning vakolat bo‘yicha tuzgan bitimi; vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Mazkur vakolat ishonchnoma, qonun, sud qarori yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan bo‘lishi kerak. Fuqarolar fuqarolarga, yuridik shaxslarga V. qilishlari mumkin. Yuridik shaxs faqat o‘z ustavida ko‘zda tutilgan hollardagina yoki faoliyat harakteriga muvofiq bo‘lgandagina fuqarolar yoki yuridik shaxslarning vakili bo‘lishi, muomalaga layoqatli shaxslar o‘zlari tanlagan vakillar orqali bitim tuzishlari mumkin. Bitim o‘z harakteriga ko‘ra fakat shaxsan tuzilishi mumkin bo‘lgan hollar, shuningdek qonunda ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno. Muomalaga layoqatsiz fuqarolar nomidan bitimni ularning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylari tuzadi (O‘zR FK, 129–131-moddalar). Muomalaga layoqatli shaxslar o‘zlari tanlagan vakillar orqali bitimlar tuzishlari mumkin, bitim o‘z xarakteriga ko‘ra faqat shaxsan tuzilishi mumkin. Muomalaga layoqatsiz fuqarolar nomidan vakillikni ularning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylari tuzadilar

Vakillik institutining jinoyat protsessidagi ahamiyati va misollar

1. Shaxs huquqlarining himoyasi

Misol: Tergov jarayonida bir fuqaro jinoyat ishi bo‘yicha gumon qilinib, unga nisbatan qo‘srimcha protsessual choralar qo’llanmoqda. Agar ushbu fuqaro advokat yordamisiz o‘z huquqlarini himoya qilsa, uning huquqlari buzilishi xavfi katta. Advokat esa uning huquq va manfaatlarini himoya qilib, tergovning qonuniyligini ta’minlaydi. Misol tariqasida, Advokat yordamida tergovga oid noto‘g’ri dalillarni rad etish yoki huquqiy xatolarni ko‘rsatish mumkin.

2. Protsessual tenglikni ta’minlash

Sud jarayonida davlat ayblovchi tomonidan malakali advokat bilan himoya qilinadigan shaxs protsessual tenglikka erishadi. Misol uchun, agar ayblanuvchining himoyachisi bo‘lmasa, sud jarayonida u o‘zini himoya qilishda qiynaladi. Shu sababli, advokatning ishtiroki taraflar o‘rtasidagi tenglikni kafolatlaydi.

3. Adolatli sudlov

Sud jarayonida advokat ayblanuvchining qonuniy huquqlarini himoya qiladi va unga qarshi qo‘yilgan ayblovlarning asoslarini so‘roq qiladi, dalillarni tahlil

20-Iyun, 2025-yil

qiladi. Bu sudga to’g’ri, adolatli va qonuniy qaror qabul qilish imkonini beradi. Advokatning faoliyati sudning xolisligini ta’minlaydi.

4. Protsessning samaradorligini oshirish

Advokatlar ishtirokida jinoyat ishlarini ko’rib chiqishda jarayon tezlashadi, chunki ular hujjatlarni oldindan tayyorlaydi, dalillarni to’playdi, protsessual hatti-harakatlarni optimallashtiradi. Misol uchun, jinoyat ishida jabrlanuvchining himoyachisi tomonidan tayyorlangan huquqiy ekspertiza ishning tez hal etilishiga yordam beradi.

Advokat yordamida ayblanuvchining himoyasi

2022-yilda Toshkent shahrida bir fuqaro o’g’rilik jinoyati bo'yicha gumon qilinib, tergovga jalg qilindi. U advokatni jalg qilmasdan, o’zining himoyasiz qoldi. Natijada tergov jarayonida unga qarshi noto’g’ri dalillar taqdim etildi. Keyinchalik, advokat jalg qilingach, tergov jarayonida ushbu noto’g’ri dalillar rad etildi va sud qarori adolatli bo’ldi.

Bu misol jinoyat protsessida vakillik institutining shaxs huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Davlat tomonidan bepul yuridik yordam ko’rsatish

Qashqadaryo viloyatida kambag’al oiladan bo’lgan shaxs jinoyat ishida ayblanuvchi sifatida qatnashdi. U moliyaviy imkoniyati yetarli bo’lmagani uchun davlat hisobidan bepul advokat tayinlandi. Advokat shaxsning huquqlarini himoya qilib, sudda uning aybsizligini isbotlashga muvaffaq bo’ldi.

Bu holat davlat tomonidan vakillik institutini qo’llab-quvvatlash va himoya qilish tizimining amaliy misoli hisoblanadi.

Sud jarayonida jabrlanuvchi vakili

Samarqand viloyatida sodir bo’lgan jinoyat ishida jabrlanuvchi vakili ham ishtirok etdi. Jabrlanuvchi o’z manfaatlarini vakili orqali sudda himoya qildi, moddiy va ma’naviy zarar talab qildi va sudda o’z pozitsiyasini aniq bildirdi.

Jabrlanuvchining vakili ishtiroki jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilish va sud jarayonining adolatli o’tishini ta’minalashga xizmat qiladi.

Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) – (shvedcha ombudsman – biron kishi manfaatlarining vakili) – turli xil ma’muriy organlar, ba’zi mamlakatlarda esa – shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylab (tayinlab) qo’yiladigan mansabdor shaxs. Ombudsman nazoratni amalga oshiradi va prokuraturadan farqli ravishda nafaqat qonuniylik, balki shu bilan birga samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, adolatparvarlik nuqtai nazaridan ham

20-Iyun, 2025-yil

tekshirish olib boradi. Bu xildagi mansabdar shaxslar har xil nom bilan ataladi: Skandinaviya mamlakatlarida – Ombudsman; Ispaniya va Kolumbiyada – xalq himoyachisi; Fransiyada – vositachi, Ruminiyada – xalq advokati va shahrik.

Vakillik institutining huquqiy asoslari

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Konstitutsiyasi vakillik institutini himoya qiladi. Xalqaro huquq normalari, masalan, BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi pakt ham advokat yordamini olishni kafolatlaydi.

Amaliy muammolar va yechimlar

Vakillik institutining rivojlanishi uchun advokatlik faoliyatiga erkinlik berilishi, ularning ishini yengillashtiruvchi qonunlar qabul qilinishi, shuningdek, aholining yuridik bilimlarini oshirish zarur. Misol uchun, ayrim hududlarda advokatlik xizmatlariga bo’lgan ehtiyoj yuqori, lekin bu xizmatlardan foydalanish kamroq. Bu esa qonuniy kafolatlarning amalda bajarilmasligiga olib keladi.

Xulosa

Jinoyat protsessida vakillik institutining roli beqiyosdir. U shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, protsessual tenglikni ta’minlaydi va sudning adolatli qaror chiqarishini kafolatlaydi. Advokatlarning ishtiroki jinoyat ishlarini tez va sifatli hal qilishga xizmat qiladi. Shu sababli, vakillik institutining rivojlanishi jinoyat protsessining adolatli va qonuniy bo’lishini ta’minalash uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2019.
3. BMT Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt, 1966.
4. Saidov, S.F. Jinoyat protsessida himoya huquqining ahamiyati. Ilmiy jurnal, 2020.
5. Pulatov, D. Jinoyat protsessida sudlovga tegishlilik va uning huquqiy mohiyati. 2023.